



TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLARDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

PRIORITY DIRECTIONS FOR INCREASING THE INVESTMENT ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS IN DEVELOPING COUNTRIES

¹Dagarov Bekzod
Muzaffar o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda rivojlangan moliya tizimlariga ega davlatlar tajribasi asosida banklarning investitsion faoliyatini kengaytirish mexanizmlari, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish darajasi hamda risklarni boshqarish tizimining samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi, raqamli bank xizmatlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

Eng. - This study is devoted to the analysis of priority areas for increasing the investment activity of commercial banks in developed countries. It studies the mechanisms for expanding the investment activity of banks, the level of use of modern financial instruments, and the effectiveness of the risk management system based on the experience of countries with developed financial systems. It also analyzes the development of the securities market, the directions for increasing investment activity through the introduction of digital banking services and innovative technologies.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsiya, investitsion faollik, rivojlangan mamlakatlar, bank tizimi, qimmatli qog'ozlar, fond bozori, kapital bozori, obligatsiyalar, aksiyalar, moliyaviy instrumentlar.*

❖ *commercial banks, investment, investment activity, developed countries, banking system, securities, stock market, capital market, bonds, shares, financial instruments.*

Kirish.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion faolligi iqtisodiyotning barqaror o'sishi va moliya sektorining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Banklar nafaqat o'z kapitalini samarali boshqarish, balki mijozlar va korporativ sektor loyihalarini moliyalashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Ushbu mamlakatlarda investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari kapital yetarliligini

mustahkamlash, risklarni diversifikatsiya qilish, innovatsion va yuqori texnologiyali loyihalarni moliyalashtirish, xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish va moliyaviy xizmatlar portfelini kengaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, tartibga soluvchi organlar bank faoliyatini raqamli texnologiyalar va barqarorlik tamoyillari asosida nazorat qiladi, bu esa investitsion qarorlar sifatini oshirish va moliyaviy xatarlarni kamaytirishga yordam beradi. Ustuvor yo'nalishlar banklarni

raqobatbardosh qilish va iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi.

2008-2012-yillar global moliyaviy inqiroz davri sifatida jahon bank tizimi tarixida alohida o'rin tutadi. Ushbu davrda ko'plab yirik tijorat banklari likvidlik tanqisligi, kapital yetishmovchiligi va bozor ishonchining keskin pasayishi bilan yuzma-yuz keldi. Moliyaviy tizimning izdan chiqishini oldini olish, real sektorni kreditlashni davom ettirish hamda tizimli ahamiyatga ega banklarning bankrot bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida rivojlangan mamlakatlar hukumatlari bank kapitaliga bevosita davlat investitsiyalarini kiritdi. AQShda TARP (Troubled Asset Relief Program) dasturi, Buyuk Britaniya va Yevropa mamlakatlarida esa banklarni qisman yoki to'liq milliyashtirish, imtiyozli aksiyalar va gibrud instrumentlar orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo'llanildi. Ushbu investitsiyalar nafaqat banklarning kapital yetarililigini tiklashga, balki butun moliyaviy tizim barqarorligini saqlab qolishga xizmat qildi. Jadvalda 2008-2012-yillarda yirik tijorat banklari kapitaliga kiritilgan davlat investitsiyalarining hajmi va asosiy shartlari aks ettirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Banking and Finance sohasidagi yetakchi olimlardan biri sifatida T. Shabbir banklar investitsion faolligining iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari kapitalni samarali taqsimlash orqali investitsiyalar hajmini oshiradi. Banklar

axborot assimetriyasini kamaytirib, resurslarni eng samarali loyihalarga yo'naltiradi. Bu esa investitsion faollikni oshirib, umumiy iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, rivojlangan moliyaviy tizim banklarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Fikrimizcha, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, banklarning investitsion faolligi ularning axborot ustunligi va bozor infratuzilmasiga bog'liq. Shu bois, institutsional muhitni mustahkamlash muhimdir.

A. Demirgüç-Kunt, H. Huizinga esa bank faoliyatining diversifikatsiyasi va investitsion yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganadi [2]. Unga ko'ra, rivojlangan davlatlarda banklar an'anaviy kreditlashdan tashqari investitsion operatsiyalarni kengaytirish orqali daromadlilikni oshiradi. Biroq bu jarayon riskning ortishi bilan birga kechadi. Shu sababli banklar risk va daromad o'rtasida muvozanatni saqlashi zarur. Investitsion faollikni oshirish uchun banklar faoliyatini diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, investitsion faoliyatni kengaytirishda risk-menejment tizimini takomillashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.

N. Srivastava rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining evolyutsiyasini tahlil qilib, bank va moliya bozorlari o'rtasidagi o'zaro aloqani muhim omil sifatida ko'rsatadi [3]. Uning ta'kidlashicha, rivojlangan iqtisodiyotlarda banklar investitsion faoliyatni oshirishda kapital bozorlari bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Bu integratsiya banklarga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkonini beradi. Natijada investitsion faollik ortadi va iqtisodiy o'sish tezlashadi. Fikrimizcha, bank va kapital bozorlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish investitsion faollikni oshirishning eng samarali yo'nalishlaridan biridir.

Paolo Morganti tijorat va rivojlanish banklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, investitsion faollikni oshirishda ularning

hamkorligi muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari qisqa va o'rta muddatli loyihalarni moliyalashtirsa, rivojlanish banklari uzoq muddatli va ijtimoiy ahamiyatga ega investitsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa investitsion tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Banklar o'rtasidagi funksional taqsimot investitsion samaradorlikni oshiradi [4]. Fikrimizcha, banklar o'rtasida funksional ixtisoslashuvni rivojlantirish investitsion faollikni barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari faoliyatini samarali tartibga solish va nazorat qilish moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois rivojlangan xorijiy

mamlakatlarda bank nazoratining turli tizimlari joriy etilib, ular orqali banklarning moliyaviy holati, risklarga duchorlik darajasi va boshqaruv sifati doimiy ravishda baholanadi. Ushbu tizimlar masofadan monitoring qilish, moliyaviy koeffitsientlar asosida tahlil o'tkazish, reytinglash hamda riskka asoslangan yondashuv kabi usullarga tayangan. Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Angliya va AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank nazoratini tizimli va kompleks tashkil etish bank inqirozlarining oldini olish hamda moliya bozorlarida ishonchni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Jadvalda ayrim xorij mamlakatlarida tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan asosiy tizimlar keltirilgan.

1-jadval

Ayrim xorij mamlakatlarida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimi [5]

Mamlakat	Nazorat organi	Tizim	Tizim joriy qilingan yil	Tizim toifasi
Fransiya	Bank komissiyasi	ORAP	1997-yil	Masofadan monitoring (MM)
Germaniya	Federal nazorat organi	BAKIS	1997-yil	Moliya koeffitsientlari va guruhlab tahlil qilish tizimi
Italiya	Italiya banki	PATROL	1933-yil	MM, baholashning reyting tizimi
Niderlandiya	Niderlandiya banki	RAST	1999-yil	Riskni baholashning yalpi tizimi
Angliya	Moliya xizmatlarni boshqarish	RATE	1998-yil	Riskni baxolashning yalpi tizimi
AQSh	Barcha nazorat organlari	CAMELS	1978-yil	Tekshiruv natijalari bo'yicha joyida reyting berish
Buyuk Britaniya	Moliyaviy siyosat bo'yicha	RATE	1998-yil	Bank xatarlarini baxolash kompleks tizimi

Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimlari milliy moliya bozorlarining xususiyatlari va risk darajasidan kelib chiqib shakllantirilgan. Masofadan monitoring, moliyaviy koeffitsientlar asosidagi tahlil va riskka yo'naltirilgan yondashuvlar banklar faoliyatidagi muammolarni erta aniqlash imkonini beradi. AQShda CAMELS tizimi banklarni joyida tekshirish natijalariga asoslangan bo'lsa, Yevropa mamlakatlarida risklarni kompleks baholash va doimiy monitoringga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu tajribalar bank sektorida barqarorlikni ta'minlash, nazorat organlarining

samaradorligini oshirish hamda bank faoliyatida shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, xorij tajribasini o'rganish va uni milliy bank nazorati tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

CAMEL(S) reyting tizimi yetarli darajada aniq va undagi ma'lumotlar tushunarli bo'lganligi uchun, ko'pgina davlatlarning bank nazorati organlari o'z banklarini baholashda ushbu reyting tizimini qo'llaydilar. Reyting tizimining «CAMEL(S)» deb nom olishi shundaki, u bank faoliyatidagi tahlil qilinadigan komponentlarning bosh harfidan tashkil topgandir. Ya'ni:

C - (Capital adequacy) Kapitalning yetarliligi;

A - (Assets quality) Aktivlar sifati;

M - (Menegment) Boshqaruvchilik qobiliyati;

E - (Earning) Daromadlilik;

L - (Liquidity) Likvidlilik komponentlaridan iborat;

S - (Sensitivity to risk) Riskka ta'sirchanlik.

Mazkur reyting tizimida kapital tijorat banklarining to'lovga qobilligi va likvidligini ta'minlashning ishonchli vositasi hisoblanadi. Shu sababli, CAMELS reyting tizimiga asoslangan inspeksion tekshirish jarayonida tijorat banklarining kapital bazasida yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishga, sabablarini aniqlashga alohida e'tibor

qaratiladi. Tekshirish natijasida aniqlanga amchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Tijorat banklari likvidligi moliya tizimining barqaror ishlashi va banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli turli xorijiy davlatlarda bank likvidligini tartibga solishning o'ziga xos me'yorlari va nazorat mexanizmlari joriy etilgan. Ayrim mamlakatlarda qat'iy majburiy likvidlik ko'rsatkichlari belgilangan bo'lsa, boshqa davlatlarda tavsiyaviy yoki tahliliy yondashuvlar qo'llaniladi. Mazkur tizimlar bank aktivlari va majburiyatlarining muvozanatini saqlash, likvidlik riskini kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Ba'zi xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklari likvidligi uchun mavjud me'yorlar*

Mamlakatlar	Majburiy me'yorlarning o'rnatilganligi	Nazorat tartibi
Fransiya	mavjud	Banklar 3 oy muddatga mavjud aktivlarini majburiyatlariga nisbati orqali har chorakda nazorat organlariga hisobot beradi. Ushbu ko'rsatkich minimal ruxsat etilgan darajasi 60 foizdir.
Germaniya	mavjud	Uzoq muddatli likvidlik me'yori 4 yillik muddatdan ortiq aktivlar umumiy summasi shu muddatdagi majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Qisqa va o'rta muddatli likvidlik me'yori qisqa va o'rta muddatli aktivlar umumiy summasi aynan shu muddatli majburiyatlarga nisbati orqali chegaralangan.
Rossiya	mavjud	Lahzalik, joriy, uzoq muddatli, umumiy hamda qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar bo'yicha likvidlik me'yorlari mavjud va barcha banklar ularga amal qilishi lozim.
Italiya	mavjud emas	Banklar 7 ta me'yor yordamida nazorat qilinadi.
Buyuk Britaniya	mavjud emas	Muddatlari bo'yicha bank aktiv va passiv moddalari tahlil etiladi.
Ispaniya	mavjud emas	Majburiy me'yor vazifasini majburiy zaxira normasi bajaradi.
AQSh	mavjud emas	Birlamchi va ikkilamchi zaxira me'yorlari tavsiya etiladi hamda pul oqimlari tahlil qilinadi.
Yaponiya	mavjud emas	Omonatlar joriy aktivlarning 30 foizini tashkil etishi tavsiya etiladi.
Belgiya	mavjud emas	Talab qilinuvchi qarz majburiyatlar hamda yuqori likvid aktivlar bog'liqligi o'rganiladi.
Gollandiya	mavjud emas	Qarz majburiyatlari, ularning muddati bo'yicha guruhlashtirilgan to'lovlar tahlil etiladi.

* Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet veb saytlari orqali muallif tomonidan shakllantirilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi tijorat banklari likvidligini boshqarishda turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Fransiya, Germaniya va Rossiyada majburiy likvidlik me'yorlari aniq

belgilangan bo'lib, banklar ushbu ko'rsatkichlar asosida muntazam nazorat qilinadi. Bu yondashuv banklarning likvidlik riskini cheklash va moliyaviy barqarorlikni

ta'minlashda samarali hisoblanadi. Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya va boshqa ayrim mamlakatlarda esa majburiy me'yorlar o'rniga aktiv va passivlarni muddatlar bo'yicha tahlil qilish, pul oqimlarini baholash hamda tavsiyaviy zaxira ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Ushbu usullar banklarga moslashuvchan boshqaruv imkonini beradi. Umuman olganda, har bir mamlakat o'z moliya tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib likvidlikni nazorat qilish mexanizmlarini shakllantiradi va bu bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki guruhi (WBG) xalqaro moliya tizimida yetakchi rol o'ynaydi va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy resurslar ajratishda asosiy manba hisoblanadi. 2021-2025-yillar davomida jahon banki majburiyatlari, to'lovlari va umumiy

emissiyalari doimiy o'sish tendensiyasini ko'rsatgan. WBG tarkibiga IBRD, IDA, IFC va MIGA kabi tashkilotlar kiradi, ular turli moliyaviy instrumentlar orqali davlat va xususiy sektor loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi. IBRD asosan qarz mablag'lari ajratish bilan shug'ullanadi, IDA esa imtiyozli kreditlar va grantlarni taqdim etadi. IFC xususiy sektor rivojlanishini moliyalashtiradi, MIGA esa investitsiyalarni kafolatlash xizmatini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlarning tahlili WBG faoliyatining barqarorligi, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, to'lovlar va emissiyalar hajmi guruhning likvidlik va moliyaviy barqarorligini baholashda muhim indikator hisoblanadi.

3-jadval

Jahon banki guruhining 2021-2025-yillar bo'yicha majburiyatlari, to'lovlari va umumiy emissiyalari (million AQSh dollarda)*

Tashkilot	2025	2024	2023	2022	2021
WBG (Jahon Banki Guruhi)					
Majburiyatlar	161,912	133,054	122,991	109,326	103,553
To'lovlar	86,928	80,844	71,911	62,580	58,050
IBRD (Xalqaro Qayta Tiklash va Taraqqiyot Banki)					
Majburiyatlar	40,885	37,568	38,572	33,072	30,523
To'lovlar	30,779	33,450	25,504	28,168	23,691
IDA (Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi)					
Majburiyatlar	39,866	31,195	34,245	37,727	36,028
To'lovlar	33,123	28,247	27,718	21,214	22,921
IFC (Xalqaro Moliyaviy Korporatsiya)					
Majburiyatlar	71,698	56,087	43,728	33,592	31,803
To'lovlar	23,026	19,147	18,689	13,198	11,438
MIGA (Xalqaro Investitsiyalar Kafolatlash Agentligi)					
Umumiy emissiya (Gross Issuance)	9,463	8,204	6,446	4,935	5,199

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet veb saytlari orqali muallif tomonidan shakllantirilgan.

2021-2025-yillar davomida Jahon banki guruhining majburiyatlari va to'lovlari doimiy o'sish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa-da, tashkilotlar bo'yicha farqlar mavjud. IBRD majburiyatlari ortib borayotgan bo'lsa-da, to'lovlarda ba'zi yillarda sezilarli tebranishlar

kuzatiladi. IDA majburiyatlari barqaror oshib, imtiyozli kreditlar orqali rivojlanayotgan mamlakatlarga yordamni ta'minlaydi. IFC majburiyatlari va to'lovlari xususiy sektor loyihalarining moliyaviy faolligini aks ettiradi. MIGA esa emissiyalar hajmi bilan

investitsiyalarni kafolatlash faoliyatining o'sishini ko'rsatadi. Umuman olganda, WBG 2021-2025-yillarda moliyaviy resurslarni kengaytirish va samarali boshqarish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlagan. Ushbu tahlil guruhning global moliya tizimidagi o'rni va uning rivojlanayotgan davlatlarga ko'rsatadigan ta'sirini aniq ifodalaydi.

Xulosa va takliflar.

Jahon banki guruhi (WBG) va uning tarkibiy institutlari - IBRD, IDA, IFC hamda MIGAning 2021-2025-yillardagi majburiyatlari, to'lovlari va emissiya hajmlari tahlili global moliyaviy faollikning barqaror

o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Umuman olganda, WBG bo'yicha majburiyatlar 2021-yildagi 103,553 mln. AQSh dollaridan 2025-yilda 161,912 mln. AQSh dollarigacha oshgan bo'lib, bu xalqaro rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish hajmi kengayib borayotganini anglatadi. IBRD va IDA ko'rsatkichlari rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, IDA doirasida barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishi davom etmoqda. IFCning majburiyatlari sezilarli darajada oshib, xususiyl sektorini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar kengayayotganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shabbir T. *Financial intermediation and growth: theory and some cross-country evidence* // *The Pakistan Development Review*. – 1997. – P. 855-862.
2. Demirgüç-Kunt A., Huizinga H. *Bank activity and funding strategies: The impact on risk and returns* // *Journal of Financial Economics*. – 2010. – T. 98. – №. 3. – P. 626-650.
3. Srivastava N. et al. *Financial market development and bank deposits* // *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*. – 2026. – T. 107. – P. 102278.
4. Gil-Jardón J. A., Morganti P. R., Atristain-Suárez C. *The role of development and commercial banking in promoting economic growth in Mexico: A sectoral analysis* // *Journal of Risk and Financial Management*. – 2024. – T. 17. – №. 11. – P. 505.
5. "Банковское дело". Учебник. Под. Рек. Лаврушина О.И. -3-е изд., переработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 576 с.